

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT

Qodirova Dildora - TDYU huzuridagi
M.Vosiqova nomidagi
Akademik litsey o'qituvchisi.

Temur va temuriylar davrida o'lkamizda fan va madaniyat barq urib o'sdi, rivojlanib va kamol topdi. Fan, madaniyatning qaysi bir sohasi, qaysi bir tarmog'ini ko'zdan kechirmaylik ona diyorumiz XIV va XV asrlarda jahon sivilizatsiyasining eng oldingi qatorlaridan joy olganligining guvohi bo'lamiz. Temuriylar sulolasi davri jahon fani va madaniyatining Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ubaydulloh Ahror, Behzod kabi ulug' vakillarini yetishtirib berdi. Ular o'z bebaho asarlari bilan nafaqat o'zbek xalqining buyuk siymolari qatoridan, balki jahon miqyosidagi allomalar qatoridan munosib o'rin oldilar.

Amir Temur o'z tarjimai holida bunday yozadi: "Men yeti yoshga to'lganimda meni madrasaga topshirishdi va qo'limga so'zlar jadvalini tutqazishdi. Men o'qiy boshladim va erishilgan muvaffaqiyatlarimdan g'oyat sevinchga to'ldim. Men to'qqiz yoshga to'lganimda besh vaqt namozni o'rgandim va maktabdagi barcha o'quvchilarga boshliq bo'lib oldim. Men qatnashgan barcha yig'inlarda ulamolar yaqiniga o'tirishga harakat qilardim va tiz cho'kib o'tirardim. Kattalarga nisbatan shunday hurmat bajo keltirishni o'zimga odat qilib oldim.

Amir Temur hukmdor bo'lganidan keyin ham ilmiy, ma'rifatli kishilarni o'z atrofida to'pladi, ilm-fan va madaniyatga homiylik qildi. Amir Temur bu haqda o'z tuzuklarida: "sakkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o'z atrofimga to'pladim... har qaysisining qissalari va xabarleri, ishlari va so'zlarini eshitib tajribam ortdi. Olamda bo'layotgan voqealarni ulardan eshitardim va olam ahvolidan xabar topar edim" deb yozgan edi.

Amir Temur Samarqandda o'z saltanatining qo'rg'oni – Ark qala va undagi betakror va go'zal binolarni qurdirganki, Ko'ksaroy va Bo'stansaroy deb elda mashhur bo'lgan bu binolar shaharning ko'rki hisoblangan. Shahar arki ichida bu binolardan tashqari masjid, ulkan kutubxona, shoxona uy-joylar, Amir Temurning xazinasini va taxta pul zarblanadigan qora, salahasozlik ustaxonalari, hamda zindon bo'lib, atrofi qalin va baland devorlar bilan o'ralgan. Amir Temur Samarqandni dunyoning eng ko'rkam va go'zal shaharlardan biriga yer yuzining "sayqaliga" aylantirishni o'zining vazifasi deb bildi. Amir Temur davrida Samarqandning dovrug'i doston bo'ldi. Uning to'rt tomonida to'rt darvozasi bo'lgan. Shahar atrofi qazilgan. Xandaqlar zilol suvlar bilan o'ralgan edi. Shaharning toza va ozodaligi juda ko'p manbalarda madh etilgan.

Muxtasiblar ko'chaga tarvuz-qovun po'choqlarini hamda boshqa chiqindilarni tashlab, yo'lovchilar uchun sirg'alish xavfini tug'dirmasligi, oqava suvlar sachrab odamlarning kiyimlarini iflos qilmasligini, qassoblar ko'chalarda yoki do'konlarning oldida mol so'yib atrofni iflostirmasligini, har kim o'z tomonidan yog'adogan qorni o'zi tozalishini va boshqa obodonchilik ishlarini qattiq nazorat qilganlar.

220 gektarni egallagan birgina Afrasiyobning o'zida Amir Temur hukumronligi davrida 80 ga yaqin hammom, gulay va gavjum 5 ta bozor bo'lgan. Tarixchi sayyoh ibn Xaqqulning hikoya qilishicha, Samarqandda "oqar suv kirmagan biror ko'cha, biror hovli deyarli yo'q edi". Odamlar ko'chalarda ariqlarda oqib turadigan toza zilol suvlardan ichimlik suvi o'rnida foydalanganlar. Samarqand atrofi bog'i-ro'g'lar bilan o'rab olingan va bevisita sohibqironning buyrug'i bilan bir-biridan go'zal o'ndan ortiq bog'lar barpo etilgan. Bular: Bog'i Naqshi Jahon, Bog'i Behisht, Amirzoda Chohruh bog'i, Bog'i Buldu bog'i, Dilkusho bog'i, Zog'on bog'i, Baland Davlatobod bog'i, Chinor bog'i, Nav bog'i Jahonnomadir.

Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi qurilish va me'morchilik ishlarida Sheroz, Isfaxon, Xorazmdan ko'plab me'mor musavvirlar va boshqa hunarmandlar ishlagan. Lekin asosiy ish boshqaruvchilar mahalliy ustalar va me'morlar bo'lgan, birinchi galda ularning milliy an'anaviy suratlari, sa'nat ijodlari yetakchi o'rinni egallagan.

Ulug'bek ko'proq va asosan buyuk olim va ulug' mutaffakir, ma'naviy madaniyatning otashin himoyachisi va jonkuyari sifatida jahon tarixidan joy oldi. U bobosi Amir Temurning moddiy madniyat bobidagi bunyodkorlik ishlarini davom ettirdi. U bir vaqtning o'zida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar barpo etdi. Tarixchi olimlar B.Ahmedov va A.Ahmedovalarning ma'lumotlari bo'yicha Samarqandda madrasa qurilishi 1417-yilda boshlanib, 1420-yilda tugatildi. G'ijdivonda esa madrasa 1433-yilda ishga tushirildi. Madrasalarning eng kattasi Samarqanddagi bo'lib, u ikki qavat va 50 ta xujradan iborat bo'lgan. Unda 100 dan ortiq talaba ta'lim olgan va istiqimat qilgan.

Mirzo Ulug'bek dovrug'ini jahonga tanitgan ulkan qurilishlardan yana biri 1420-1429-yillarda qurib bitkazilgan Ulug'bek rasadxonasi (observatoriya)dir. U XV asrdayoq Samarqandda birinchi astranomik akademiyaga asos solgan siymo sifatida dunyoga nom taratdi.

Mirzo Ulug'bekning boy ilmiy merosi bugun keng o'qilmoqda va o'rganilmoqda. Uning "Zijji jadidi ko'ragoni", "Bir daraja simusni aniqlash haqida risola", "Risolaiy Ulug'bek", "Tarixi arba ulus", "Rizsolaiy dar ilmiy musiqa" kitoblari astronomiya, matematika, tarix, musiqa ilmiga qo'shilgan bebaho hissasidir.

Alisher Navoiy Hirotda ko'pgina ilm va san'at to'pladi, ularni har tomonlama himoya qildi. Abdurahmon Jomiy, Sayid Xasan Ardasher kabi so'z ustalari Navoiyning yaqin do'stlari va maslahatchilari edilar. Navoiy iste'dodli yoshlar

tarbiyasiga alohida e'tibor berdi. Tarixchi Xondamir, xattot Sulton Ali, rassom Behzod va boshqalar Navoiy homiyligida kamolga yetdilar. Navoiy madrasa, kutubxona, shifoxona, hammom va shunga o'xshash binolar qarildi.

Navoiyning Hirotida qurdirgan "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Xoiosiya" xonaqohi, Marvda qurdirgan "Xisraviya" madrasasi ilm va san'at rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xondamirning ta'kidlashicha, u "talabalar faqat o'qish bilan mashg'ul bo'lsin" deb ularga nafaqalar tayn etgan.

Alisher katta yer va mulk egasi bo'lgan. U yillik daromadining katta qismini xalq farovonligi uchun har xil qurilishlarga, ochlarni boqish va kambag'allarni tiyintirish kabi savob ishlarga sariflagan.

Navoiy qizg'in ishga berilib, o'zbek adabiy tilini taraqqiy etish, bu tilda badiiy asarlar yaratish, ularda mamlakat va xalq manfaatini yoritish vazifasini o'z oldiga qo'yadi va dastlab lirik sherlar bilan keng shuhrat qozona boshlaydi. 1470-yillarning boshlarida birinchi devoni "Badoe'ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi")ni tuzdi. 1476-1483-yillar ikkinchi devoni "Navodirun-nihoya" ("Behad nodirliklar")ni yaratdi.

Lirikada tajriba orttirib, shuhrat qozongan Alisher endi o'zbek tilida yirik epik asarlarni, jumladan "Xamsa"ni yaratishga kirishadi. 1483-yilda "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat-ul-abror" ("Yaxshi kishilarning xayratlanishi"), 1484-yilda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" ("Eti sayyora") va 1485-yilda "Saddi Iskandariya" ("Iskandar devori") dostonlarini yozdi.

Navoiy "Xamsa"si nafaqat o'zbek klassik adabiyotida, hatto jahon adabiyotining eng buyuk durdona obidalaridan biri bo'ldi.

Umrni zoye etma, mehnat qil mehnatning kaliti bil shiorini maydonga tashlagan. Alisher o'z vaqti va imkoniyatlaridan nihoyatda samarali foydalanadi. "Xamsa"dan keyin yana ko'pgina badiiy va ilmiy asar yaratib ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Navoiy doimo qizg'in ish bilan band edi. Feodal-o'zaro toj-taxt talashlari uni qattiq tashvishga solmoqda edi. 1500-yilning yozida Husayn o'g'li Muhammad Husayinga qarshi yuradi, jangda g'alaba qilgan Husayn o'g'li bilan yarashadi va u 28-dekabrda Hirotga kirib keladi. Navoiy betobligiga qaramay shohning istiqboliga chiqadi. Uning sihati og'irlashadi, behush Navoiyni Hirotga olib qaytadilar. 1501-yilning 3-yanvarida Alisher Navoiy Hirotida vafot etadi.

Naviy juda katta boy lirik va ko'p ilmiy asarlar qoldirdi. Bu xazinaning asosi o'zbek tilida yozilgan 45 ming misraga yaqin she'rlardir. Bu "Hazoyin ui-moniy" va fors-tojik tilida 12 ming misradan ziyodroq she'rlar - Devoniy Fonini tashkil etadi. Uning hamma asarlarini bugungi kunda har bir inson sevib o'qidi va mutolaa qiladi.

Zahriddin Muhammad Bobur faqatgina hukumdor bo'lib qolmasdan xalq sevgan shoir ham edi. Uning ijodioti ko'proq lirik asarlari hamda "Boburnoma" bilan

xarakterlanadi. Bizga Boburning 100 dan ortiq g'azali va 200 ga yaqin ruboiylari ma'lum bo'lib, ularda ishq va muhabbat, go'zallik va shodlik kuylanadi.

Amir Temur va temuriylar davrida hukumdorlarning o'zlarini ilm-fan va madaniyatga intilishi, bu sohada ularning o'zlarini shaxsan homiylik qilishlari XIV-XV asrlarda yurtimizda fan va madaniyatning yuksalishiga va shu tariqa dunyoda ikkinchi marta ham O'rta Osiyoda renessans(uyg'onish) ro'y berishiga olib keldi. Bu davrda Samarqand, Shaxrisabz, Buxoro, Hirot kabi yirik shaharlarda qurilish, bunyodkorlik va me'morchilik ishlari olib borildi. Baland, yirik obidalar qad ko'tardi, go'zal bog'lar barpo etildi.

Temuriy shaxzodalardan Shohruh Mirzo, Abu Said Mirzo, Husayin Boyqaro, Bobur Mirzolar ijodlari bu yurti jahonga tanitdi. Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Axmad Xorazmiy, Mavlono Termiziy, Mansur ibn Muhammad Buxoriy, Shayx Zayniddin Xofiy, Said Sharif Jurjoniy, Ali Qishchi kabi allomalar jahon sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Bu davrda shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijod etdi va turkiy dunyoni yakqalam qildi. Uning homiligida tarixchi Xondamir, xattot Sulton Ali, rassom Behzod va boshqalar kamolga yetdilar.